

XORAZM VILOYATIDA QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Xorazm viloyatini qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 5096,8 mlrd so‘mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida ko‘rsatilgan xizmatlar – 4909,0 mlrd so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – 83,1 mlrd so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – 104,8 mlrd so‘mni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘shish sur‘ati



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hududlar kesimidagi hajmi

2026-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Qo‘shko‘pir (655,8 mlrd so‘m), Urganch (534,8 mlrd so‘m), Xonqa (510,8 mlrd so‘m), Xiva (491,5 mlrd so‘m), Gurlan (483,7 mlrd so‘m) va Bog‘ot (418,5 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiariq tumani (410,1 mlrd so‘m), Yangibozor tumani (304,5 mlrd so‘m) va Tuproqqal‘a tumanini (121,2 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

	Hajm mlrd so‘m	O‘shish sur‘ati % da
Xorazm viloyati	5096,8	105,0
Urganch shahri	254,6	124,8
Xiva shahri	39,2	181,0
Bog‘ot tumani	418,5	99,7
Gurlan tumani	483,7	104,0
Qo‘shko‘pir tumani	655,8	100,3
Urganch tumani	534,8	103,9
Hazorasp tumani	400,9	106,8
Tuproqqal‘a tumani	121,2	105,8
Xonqa tumani	510,8	106,9
Xiva tumani	491,5	102,5
Shovot tumani	471,4	106,1
Yangiariq tumani	410,1	103,8
Yangibozor tumani	304,5	105,6

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati tahlil qilinganda, yuqori o‘shish sur‘atlari Xonqa (106,9 %), Hazorasp (106,8 %), Shovot (106,1 %), Tuproqqal‘a (105,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Gurlan (104,0 %), Urganch (103,9 %), Yangiariq (103,8 %), Xiva (102,5 %), Qo‘shko‘pir (100,3 %) tumanlarida esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2026-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 4 793,6 mlrd so‘mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 185,9 mlrd so‘mni (103,0 %), chorvachilik mahsulotlari 4 607,7 mlrd so‘mni (104,7 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Qo‘shko‘pir (625,1 mlrd so‘m), Urganch (511,9 mlrd so‘m), Xonqa (489,7 mlrd so‘m) va Gurlan (462,9 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shovot tumani (454,8 mlrd so‘m), Xiva tumani (451,0 mlrd so‘m) va Bog‘ot tumanini (396,1 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘shish sur‘atlari Xonqa (106,6 %), Hazorasp (105,3 %), Shovot (105,2 %) Yangiariq (105,0 %) tumanlarida qayd etildi. Gurlan (102,6 %), va Xiva (102,2 %) tumanlarida esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 78,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,6 % i fermer xo'jaliklariga, 14,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Qo'shko'pir (616,3 mlrd so'm), Urganch (491,4 mlrd so'm), Xonqa (465,0 mlrd so'm), Gurlan (449,0 mlrd so'm) va Shovot (440,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bog'ot tumani (370,0 mlrd so'm), Hazorasp tumani (358,5 mlrd so'm) va Yangiariq tumanini (332,9 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Bog'ot (106,5 %), Xonqa (105,9 %), Tuproqqal'a (105,0 %), Hazorasp (104,8 %) tumanlarida qayd etildi. Shovot (104,6 %), Yangiariq (103,0 %), Gurlan (102,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 47,5 ming tonna go'sht, 231,6 ming tonna sut, 102,7 mln dona tuxum, 112,9 tonna qirqib olingan jun, 1,8 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 4,5 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,3 % ni, sog'ib olingan sut – 103,5 % ni, olingan tuxum – 104,0 % ni, qirqib olingan jun – 106,5 % ni, olingan qorako'l teri – 99,9 % ni hamda ovlangan baliqlar – 92,7 % ni tashkil qildi.

2026-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 3,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 81,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 14,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,6 % i fermer xo'jaliklari, 90,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



2026-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Yanvar-mart 2026-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	47,5	105,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,8	122,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	38,9	98,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,8	164,8
Sut, ming tonna	231,6	103,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	19,9	135,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	209,9	101,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,8	114,0
Tuxum, mln dona	102,7	104,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	12,2	103,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	65,5	101,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	25,0	113,0
Jun, tonna	112,9	106,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	37,3	109,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	64,3	102,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11,3	126,0
Qorako'l teri, ming dona	1,8	99,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,1	86,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1,7	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,04	93,3
Baliq, ming tonna	4,5	92,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,0	105,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,2	95,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,3	72,1

Shu bilan birga, olingan tuxumning 11,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 63,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 24,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 33,1 % i fermer xo‘jaliklari, 56,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 10,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Bundan tashqari olingan qorako‘l terining 6,6 % i fermer xo‘jaliklariga, 91,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 2,3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

O‘z navbatida, ovlangan baliqlarning 66,4 % i fermer xo‘jaliklariga, 4,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 29,1 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	<i>Go'sht</i> (tirik vaznda), tonna	<i>Sut,</i> tonna	<i>Tuxum,</i> ming dona
Xorazm viloyati	47 511,2	231 585,4	102 743,1
Urganch shahri	3 173,6	1 793,0	639,0
Xiva shahri	392,6	2 008,6	749,3
Bog‘ot tumani	3 926,6	16 841,9	13 285,1
Gurlan tumani	4 414,2	25 445,6	5 919,5
Qo‘shko‘pir tumani	7 263,8	22 692,2	4 869,3
Urganch tumani	4 714,8	27 519,9	17 869,3
Hazorasp tumani	2 793,0	29 114,9	3 325,4
Tuproqqal‘a tumani	1 261,8	3 603,7	2 524,4
Xonqa tumani	4 521,7	25 572,9	15 955,9
Xiva tumani	4 522,3	20 496,9	19 913,0
Shovot tumani	4 665,9	21 164,8	5 487,2
Yangiariq tumani	3 197,0	19 324,5	7 487,8
Yangibozor tumani	2 664,1	16 006,6	4 717,7

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Yangiariq (38,2 mlrd so‘m), Bog‘ot (26,1 mlrd so‘m), Xonqa (24,7 mlrd so‘m), Urganch (20,5 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo‘shko‘pir tumanini (8,8 mlrd so‘m), Hazorasp tumani (8,4 mlrd so‘m) va Tuproqqal’a tumanini (4,6 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘shish sur‘atlari Xiva (136,6 %), Hazorasp (125,4 %) Shovot (123,3 %) tumanlarida qayd etildi. Qo‘shko‘pir (112,0 %), Tuproqqal’a (70,9 %) va Bog‘ot (56,6 %) tumanlarida esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o‘shish sur‘ati, % da
Xorazm viloyati	5 900,1	103,0
Urganch shahri	1,2	6,0 m.
Xiva shahri	13,3	144,9
Bog‘ot tumani	961,2	45,3
Gurlan tumani	308,1	155,7
Qo‘shko‘pir tumani	70,4	2,4 m.
Urganch tumani	684,7	136,2
Hazorasp tumani	144,8	2,5 m.
Tuproqqal’a tumani	62	34,4
Xonqa tumani	883,9	133,1
Xiva tumani	233,1	3,1 m.
Shovot tumani	285	195,0
Yangiariq tumani	1 924,2	126,1
Yangibozor tumani	328,2	151,4

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Yangiariq tumani (32,6 %) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Bog‘ot (16,3 %), Xonqa (15,0 %), Urganch (11,6 %) va Yangibozor (5,6 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko‘rsatkichlar Qo‘shko‘pir (1,2 %) va Tuproqqal’a tumanlarida (1,1 %) kuzatildi.

2025-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xiva tumani (312,0%), Hazorasp tumani (254,5%), Qo'shko'pir tumani (241,9%), Shovot tumani (195,0%) va Gurlan tumanida (155,7%) qayd etildi.

Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 003,4 ming boshga yetdi, (2025-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 2,6 % ga ko'p), sigirlar 385,7 ming boshga (3,9 % ga ko'p), qo'y va echkilar 508,5 ming boshga (0,1 % ga ko'p), parrandalar 7 767,9 ming boshga (5,6 % ga ko'p) yetdi.

2026-yilning 1-aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 003,4	102,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	89,2	109,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	884,3	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	29,9	187,8
shundan sigirlar	385,7	103,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	38,9	111,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	334,6	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	12,2	199,0
Qo'y va echkilar	508,5	100,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	89,4	97,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	389,2	100,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	29,9	102,9
Otlar	5,5	94,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,9	101,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4,4	92,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,2	196,5
Parrandalar	7 767,9	105,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 553,2	130,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3 962,8	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 251,9	101,7

2026-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 10,1 % i fermer xo'jaliklariga, 86,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 17,6 % i fermer xo'jaliklariga, 76,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 20,0 % i fermer xo'jaliklariga, 51,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026-yilning 1-aprel holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Xorazm viloyati	1 003,4	508,5	7 767,9
Urganch shahri	6,1	2,0	123,9
Xiva shahri	17,1	12,8	76,8
Bog'ot tumani	88,8	65,6	839,3
Gurlan tumani	98,2	20,0	653,2
Qo'shko'pir tumani	96,5	97,2	801,5
Urganch tumani	118,1	57,1	1043,5
Hazorasp tumani	90,4	64,5	485,7
Tuproqqal'a tumani	21,8	26,7	115,2
Xonqa tumani	135,9	33,5	1 137,7
Xiva tumani	73,9	23,2	601,7
Shovot tumani	96,0	39,7	716,2
Yangiariq tumani	75,9	44,4	612,5
Yangibozor tumani	84,7	21,8	560,7

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada oʻz isteʼmoli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xoʻjaligida, oʻrmonchilik va yogʻoch tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xoʻjaliklarida, dehqon va tomorqa xoʻjaliklarida hamda qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xoʻjaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xoʻjaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xoʻjaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shugʻullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xoʻjaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xoʻjaligi boshligʻiga berilgan yer uchastkasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xoʻjaligi aʼzolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xoʻjalikdir.

Tomorqa xoʻjaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bogʻliq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xoʻjalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xoʻjalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xoʻjalik toifalari boʻyicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini oʻz ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qoʻy va echkilar, choʻchqalar va h.k.)

Goʻsht yetishtirish – soʻyish uchun sotilgan hamda oʻz xoʻjaligida soʻyilgan barcha turdagi qishloq xoʻjaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini oʻz ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sogʻib olingan sut va ogʻiz sutini qoʻshgan holda, haqiqatda sogʻib olingan sigir, echki, qoʻy, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sogʻib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda joʻja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini oʻz ichiga oladi.

Metamaʼlumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun masʼul:
Qishloq xoʻjaligi va atrof-muhit
statistikasi boʻlimi

Ijrochi:
T. Xodjaye
6222 4-64-96 (9110)

Manzil:

